INTERNETNING IJTIMOIY TARMOQLAR MULOQOTIDAGI O‘RNI

https://doi.org/10.70728/phil.v05.i03.018

M.Sh.Nuriddinova
e-mail:mnuriddinova1992@mail.ru
Qo‘qon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar muloqoti yuzma-yuz, an’anaviy yozma va boshqa internet-kommunikatsiyadagi muloqot shakllaridan farqlanadi. U yuzma-yuz muloqotdagi mimika va intonatsiya vositalari bilan cheklangan, masofadan turib tezkor va interaktiv axborot almashish imkonini beradi. An’anaviy yozma muloqotdan farqli o‘laroq, ijtimoiy tarmoqlarda nutq qisqa, tezkor va ko‘pincha norasmiy bo‘lib, foydalanuvchilar postlar, statuslar, kommentariyalar hamda hashtaglar orqali o‘z fikrlarini ifodalaydi. Shu bilan birga, boshqa internet-kommunikatsiya shakllariga nisbatan ijtimoiy tarmoqlar muloqoti auditoriya bilan doimiy interaktivlik va keng ko‘lamli fikr almashish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoq leksikasi, emoji, kommunikativ birliklar,nutqiy strategiyalar

THE ROLE OF THE INTERNET IN SOCIAL NETWORK COMMUNICATION

M.Sh.Nuriddinova
e-mail:mnuriddinova1992@mail.ru
Kokand State University

Abstract: This article explores the specific features of communication on social networks. Communication in social networks differs from face-to-face, traditional written, and other forms of communication in Internet communication. It is limited to the means of facial expressions and intonation in face-to-face communication, allowing for the rapid and interactive exchange of information remotely. Unlike traditional written communication, speech on social networks is short, fast, and often informal, with users expressing their opinions through posts, statuses, comments, and hashtags. At the same time, compared to other forms of Internet communication, communication in social networks allows for constant interaction with the audience and a large-scale exchange of ideas.

(cc) BY

Keywords: social network vocabulary, emoji, communicative units, speech strategies

KIRISH. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda internet jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar insonlar o‘rtasidagi muloqot jarayonini tubdan o‘zgartirib, yangi kommunikativ muhitni shakllantirdi. Internet asosida faoliyat yurituvchi ijtimoiy tarmoqlar shaxslararo aloqalarni tezkor, qulay va chegarasiz tarzda amalga oshirish imkonini bermoqda. Natijada an’anaviy muloqot shakllari bilan bir qatorda virtual muloqot turi ham keng ommalashdi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot o‘ziga xos lingvistik, pragmatik va sotsiomadaniy xususiyatlarga ega bo‘lib, u og‘zaki va yozma nutq unsurlarining uyg‘unlashuvi bilan ajralib turadi. Internet muhiti muloqotda til birliklarining qisqarishi, yangi leksik birliklarning paydo bo‘lishi, emoji va grafik belgilar orqali ma’no ifodalash kabi jarayonlarni yuzaga keltirdi. Shu bois ijtimoiy tarmoqlardagi kommunikatsiya nafaqat texnologik, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, internetning ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotga ta’siri til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Shuningdek, virtual muloqotning jamiyatdagi kommunikativ me’yorlarga, nutq madaniyatiga va til taraqqiyotiga ta’sirini o‘rganish bugungi tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Tadqiqotning asosiy maqsadi internetning ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot jarayonidagi o‘rnini aniqlash va uning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun ijtimoiy tarmoq matnlari tahlil qilinib, ulardagi kommunikativ birliklar, nutqiy strategiyalar hamda zamonaviy internet leksikasining o‘ziga xos jihatlari o‘rganiladi.

TADQIQOT USULLARI

Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot quyidagi muloqot shakllaridan farqlanadi:

1. Yuzma-yuz muloqot shaklidan 2. an’anaviy yozma muloqotning boshqa shakllaridan. 3. internet-kommunikatsiyaning boshqa shakllaridan[31].

Yuzma-yuz muloqot shaklidan - Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot yuzma-yuz bo‘lmaydi, ya’ni insonlar bir xonada yoki bir joyda bo‘lish sharti yo‘q. U masofadan turib amalga oshadi. Shu bilan birga, yuzma-yuz muloqotda intonatsiya, mimika va gestlar orqali tushuncha tezroq va aniqroq yetkaziladi, ijtimoiy tarmoqlarda esa bu vositalar cheklangan yoki emojilar, stikerlar orqali ifodalanadi.

An’anaviy yozma muloqotning boshqa shakllaridan - An’anaviy yozma muloqot (maktub, rasmiy xat, jurnal, gazeta) ko‘proq rasmiy, uzoq va tartibli bo‘ladi. Ijtimoiy

[31] Матусевич А. А. Общение в социальных сетях: прагматический, коммуникативный, лингвостилистический аспекты характеристики: автореферат дис. кандидата филологических наук //Нижний Новгород. – 2017.

(cc) BY

tarmoqlarda esa muloqot qisqa, tezkor, interaktiv va ko‘pincha norasmiy bo‘ladi. Masalan, chat xabarlari, statuslar, kommentariyalar va hashtaglar yordamida ifodalanadi.

Internet-kommunikatsiyaning boshqa shakllaridan - Ijtimoiy tarmoqlar muloqoti forumlar, bloglar, email yoki video konferensiya kabi boshqa internet-kommunikatsiya shakllaridan farq qiladi. U ko‘proq ijtimoiy va doimiy interaktivlikka yo‘naltirilgan. Masalan, foydalanuvchilar postlarga tezkor javob beradi, “like”, “share” yoki “comment” orqali muloqot jarayonini davom ettiradi. Shu bilan birga, foydalanuvchilar o‘zaro muloqot jarayonida auditoriyani kengaytirishi va tezkor fikr almashishi mumkin.

TAHLIL. Globalizatsiya kuchayib borayotgan sharoitda inson va multimedia texnologiyalari o‘rtasidagi munosabatlar birinchi darajaga chiqmoqda. Ko‘plab tadqiqotlar insonlar orasida ushbu texnologiyalarga qaramlikning tobora ortib borayotganini ko‘rsatdi. Qiziq tomoni shundaki, ayniqsa virtual ijtimoiy tarmoqlar muloqotda birinchi o‘ringa chiqdi, chunki ijtimoiy tarmoqda muloqot yuzma-yuz aloqadan ko‘ra tez va oson amalga oshadi[32].

Albatta, ijtimoiy tarmoqlar yaratuvchilari asosiy maqsad sifatida insonning o‘zini ifoda etish ehtiyojini qondirishni belgilagan. Ma’lumki, amerikalik psixolog

A.Maslou piramidasi bo‘yicha inson ehtiyojlari orasida birinchi o‘rinda o‘zini ehtiyojlarini qondirish, ya’ni shaxsiy maqsad va qobiliyatlarni rivojlantirish hamda shaxsiy o‘sishni ta’minlash ehtiyoji turadi. O‘z ehtiyojini amalga oshirish - bu “Inson hohlagan ishini yaxshi bajarish uchun qiladigan mehnatdir… Inson har doim imkon qadar eng yaxshi bo‘lishni xohlaydi”[33]. Bundan tashqari, VKontakte, Odnoklassniki, Мой мир, Мой круг va Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlar har xil yoshdagi va turli darajadagi intellektga ega odamlarning muloqot qilishi uchun maydonchaga aylanadi. Tarmoqdagi muloqot yuzma-yuz muloqotni to‘ldirmaydi, balki uni deyarli to‘liq siqib chiqaradi. Hozirgi kunda tarmoqlarda butun dunyo bo‘yicha taxminan bir milliard foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tgan. 2024-2025 yillar ma’lumotlariga ko‘ra, global internet foydalanuvchilarining juda katta qismi, taxminan 80-90% dan ortig‘i kamida bitta ijtimoiy tarmoqdan ro‘yxatdan o‘tgan. Facebook 3 milliarddan ortiq faol foydalanuvchi bilan yetakchilik qilsa, Instagram 2 milliarddan ortiq oylik faol foydalanuvchiga ega, bu esa dunyo aholisining katta qismini qamrab olgan.

- Facebook**:** Dunyodagi eng yirik ijtimoiy tarmoq.
- Instagram**:** Yoshlar va vizual kontent orasida ommabop.

O‘zbekistonda ham ushbu platformalardan foydalanish darajasi yuqori va o‘sib bormoqda, asosan yoshlar va o‘rta yoshdagilar orasida ommalashgan.[34]

[32] Калинина 2014 – Калинина Л. В. Вербальная конкуренция в пространстве Интернета: реклама, рерайт, репост // Вестник Вятского государственного гуманитарного университета. Научный журнал. 2014. – № 3. – С. 80–88.
[33] Maslow A.H. The Farther Reaches... P. 48
[34] https://zenodo.org/records/6550730

(cc) BY

XULOSA. Bugungi globalizatsiya sharoitida ijtimoiy tarmoqlar inson muloqotining ajralmas qismiga aylandi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar orasida ularning roli tobora ortib bormoqda: 99% yoshlar kamida bitta ijtimoiy tarmoqqa ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, eng mashhurlari VKontakte, Odnoklassniki va Мой мир hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarga o‘z fikrini ifoda etish, muloqot qilish va yangi tanishlar orttirish imkonini beradi, ammo shu bilan birga, noto‘g‘ri ma’lumotlar tarqalishi, yuzma-yuz muloqotni siqib chiqarish va internetga qaramlik kabi salbiy jihatlarni ham keltirib chiqaradi.

Shu bois, ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot jamiyat va shaxs hayotida muhim rol o‘ynashi bilan birga, uning samarali va ongli foydalanilishi talab etiladi. Muloqotning mazmuni, sifati va etik jihatlari ijtimoiy tarmoqlarda ham saqlanishi kerak, chunki insoniy muloqot har doim bebaho qadriyat sifatida qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Калинина 2014 - Калинина Л. В. Вербальная конкуренция в пространстве Интернета: реклама, рерайт, репост // Вестник Вятского государственного гуманитарного университета. Научный журнал. 2014. - № 3. - С. 80-88.

2. Матусевич А. А. Общение в социальных сетях: прагматический, коммуникативный, лингвостилистический аспекты характеристики: автореферат дис. кандидата филологических наук //Нижний Новгород. - 2017.

3. Maslow A.H. The Farther Reaches... P. 48

4. https://zenodo.org/records/6550730

(cc) BY